

**“TASDIQLANGAN”**

**“Kapitalbank” ATB  
Aksiyadorlar Umumiy  
majlisi tomonidan**

**2019-yil 30-dekabr  
(4/2019-son majlis bayoni)**

**Majlis raisi:**

\_\_\_\_\_ **M.A.Abdusamado**  
v

**“Kapitalbank” aksiyadorlar tijorat  
bankining Taftish  
komissiyasi to‘g‘risida Nizom  
(Yangi tahriri)**

**Toshkent – 2019**

## **I. UMUMIY QOIDALAR**

1. Ushbu “Kapitalbank” ATB Taftish komissiyasi to‘g‘risidagi Nizom (bundan quyida matn bo‘yicha – “Nizom”) O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi (yangi tahriri), “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi (yangi tahrir) qonunlari va boshqa qonunchilik hujjatlari, shuningdek “Kapitalbank” ATB Ustavi (bundan quyida matn bo‘yicha – bank), bankning Korporativ boshqaruv kodeksi va “Kapitalbank” ATB ning boshqa mahalliy hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Nizom bank Taftish komissiyasi tarkibi, vazifalari, vakolatlari, uni shakllantirish, bankning boshqaruv organlari bilan ishlashi va o‘zaro aloqasi tartibini belgilab beradi.

## **II. BANK TAFTISH KOMISSIYASINING HUQUQIY MAQOMI VA VAKOLATLARI**

3. Taftish komissiyasi bankning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati ustidan ichki nazoratni amalga oshiradigan bank organi hisoblanadi.

Bankning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati bank Taftish komissiyasi, aksiyadorlar Umumiy majlisi, Kuzatuv kengashi tashabbusi bilan yoki bankning ovoz huquqiga ega aksiyalarining kamida besh foizining egalari bo‘lgan aksiyador (aksiyadorlar) talabi bilan bank Kuzatuv kengashini oldindan xabardor qilgan holda bankning bir yildagi faoliyati yakunlari yoki boshqa davri bo‘yicha tekshiriladi.

Taftish komissiyasi bankning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tekshirish yakunlari bo‘yicha xulosa tuzadi, undan quyidagilar bo‘lishi kerak:

bankning hisobotlari va boshqa moliyaviy hujjatlaridagi ma’lumotlar to‘g‘riligining bahosi; buxgalterlik hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni taqdim qilish tartibi, shuningdek moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishda qonunchilikning buzilishlari to‘g‘risidagi axborot.

Bundan tashqari, bankning Taftish komissiyasi bankning affilirlangan shaxslari bilan bitimlarining alohida reyestrini yuritadi va yilning har choragida bank Kuzatuv kengashi majlisiga bankda affilirlangan shaxslar bilan bitimlar yoki yirik bitimlarning mavjudligi, shuningdek bunday bitimlarni amalga oshirishda qonunchilik va bankning mahalliy hujjatlariga rioya qilinishi to‘g‘risidagi xulosa beradi.

4. Taftish komissiyasi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi (yangi tahriri), “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi (yangi tahriri), “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida” (yangi tahriri), “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) qonunlari, shuningdek boshqa qonuniy hujjatlar, shuningdek bank Ustavi va bankning Taftish komissiyasi va a’zolarining faoliyatiga taalluqli boshqa mahalliy hujjatlariga amal qiladi.

## **III. TAFTISH KOMISSIYASI TARKIBI**

5. Taftish komissiyasi bank aksiyadorlarining Umumiy majlisi tomonidan saylanadi. Taftish komissiyasi a’zoliciga har bir nomzod bo‘yicha alohida ovoz beriladi.

6. Muayyan bir shaxsni Taftish komissiyasi tarkibiga kiritish to‘g‘risidagi qaror bank aksiyadorlarining Umumiy majlisida ishtirok etayotgan bankning ovoz huquqiga ega aksiyalari egalarining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Bankning Kuzatuv kengashi a’zolari yoki bank boshqaruv organida lavozimlarni egallab turgan shaxslarga tegishli aksiyalar ovoz berishda

ishtirok eta olmaydi.

7. Taftish komissiyasi a'zolari soni bank Ustavi bilan belgilanadi. Taftish komissiyasi bank aksiyadorlari Umumiy majlisining qarori bilan bir yillik muddatga uning a'zolarining qayta saylanish huquqi bilan saylanadi. Bunda aynan bir shaxsning o'zi ayni bir jamiyatning taftish komissiyasi tarkibiga ketma-ket uch marta saylanishi mumkin emas.

8. Taftish komissiyasi a'zolari bir vaqtning o'zida bank Kuzatuv kengashi a'zolari bo'lishi, bankning boshqaruv organlarida boshqa lavozimlarni egallashi, shuningdek bankda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlashi mumkin emas.

9. Taftish komissiyasi a'zolarining vakolatlari bank aksiyadorlari Umumiy majlisi tomonidan muddatidan oldin to'xtatilishi mumkin.

Taftish komissiyasi a'zolariga quyidagi malakaviy talablar qo'yiladi:

- oliy professional ta'lim, iqtisodiyot/moliya/huquq sohasida kamida uch yillik ish tajribasi mavjud bo'lishi;

- o'rta professional ta'lim, iqtisodiyot/moliya/huquq sohasida kamida besh yillik ish tajribasi mavjud bo'lishi.

10. Taftish komissiyasi raisiga har oyda to'lanadigan haq O'zbekiston Respublikasida o'rnatilgan bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravariga teng summa miqdorida belgilanadi.

Taftish komissiyasi a'zolariga har oyda O'zbekiston Respublikasida o'rnatilgan bazaviy hisoblash miqdorining 8 baravariga teng summa miqdorida haq (mukofot) to'lanadi.

Bankning Taftish komissiyasi raisi va a'zolariga o'tgan oy uchun keyingi oyning beshinchi kunidan kechikmasdan haq (mukofot) to'lanadi.

Bankning Taftish komissiyasi tarkibiga yangi a'zo kiritilganida yoki bankning Taftish komissiyasi a'zosi bank Taftish komissiyasi tarkibidan chiqqan hollarda mukofot miqdori a'zoning bank Taftish komissiyasi tarkibida bo'lgan haqiqiy kalendar kunlari bo'yicha hisoblanadi.

Bankning Taftish komissiyasi raisi va a'zolariga to'lanadigan mukofot (haq)ni hisoblashda uni hisoblash sanasida amalda bo'lgan bazaviy hisoblash miqdoridan foydalaniladi.

## **IU. TAFTISH KOMISSIYASINING VAZIFALARI**

11. Taftish komissiyasi bankning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini bank Taftish komissiyasi, aksiyadorlar Umumiy majlisi, Kuzatuv kengashi tashabbusi bilan yoki bankning ovoz huquqiga ega aksiyalarining kamida besh foizining egalari bo'lgan aksiyador (aksiyadorlar) talabi bilan bank Kuzatuv kengashini oldindan xabardor qilgan holda bankning bir yildagi faoliyati yakunlari yoki boshqa davri bo'yicha tekshiradi (taftish qiladi).

Taftish komissiyasi bankning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish yakunlari bo'yicha xulosa tuzadi, unda quyidagilar bo'lishi kerak:

bankning hisobotlari va boshqa moliyaviy hujjatlaridagi ma'lumotlarning to'g'riligini baholash;

moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda buxgalterlik hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni taqdim etish tartibi, shuningdek qonunchilikning buzilish holatlari to'g'risidagi axborot.

12. Taftish komissiyasi o'z vazifalarini bajarishda quyidagilarni amalga oshiradi:

bankda tayyorlangan moliyaviy axborotning aniqligi; bankning umumiy moliyaviy holati bo'yicha mustaqil xulosa va aksiyadorlarning Umumiy majlisida yoki undan oldin aksiyadorlar oldida axborot berish uchun Taftish komissiyasining ish natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

bank nomidan tuzilgan shartnomalarning, amalga oshirilayotgan bitimlarning, kontragentlar bilan hisob-kitoblarning qonuniyligini tekshirish;

moliyaviy-xo'jalik, ishlab chiqarish faoliyatida o'rnatilgan normativlarga, qoidalarga va hokazolarga rioya qilinishini tekshirish;

bankning moliyaviy faoliyatini, uning to'lov qobiliyatini, aktivlarining likvidligini, xususiy va qarz mablag'larining nisbatini tahlil qilish, bankning iqtisodiy holatini yaxshilash zaxiralarini aniqlash va bank boshqaruv organlari uchun tavsiyalar ishlab chiqish;

byudjetga to'lovlarning o'z vaqtida va to'g'ri kiritilishi, boshqa majburiyatlarning bajarilishini tekshirish;

soliq inspeksiyasi, statistika organlari, davlat boshqaruv organlariga taqdim etiladigan bank balanslari, hisobot hujjatlarining to'g'ri tuzilishini tekshirish;

buxgalterlik va statistik hisobga olishni yuritishning mavjud normativ nizomlarga muvofiqligini, zaruriyat tug'ilganida birlamchi buxgalterlik hujjatlariga murojaat qilgan holda tahlil qilish;

bank Kuzatuv kengashi yoki bank Boshqaruvi qabul qilgan qarorlarning to'g'riligini, ularning bank Ustavi, Kuzatuv kengashi yoki bank Boshqaruvi to'g'risidagi nizomlarga, shuningdek aksiyadorlar Umumiy majlisi qarorlariga muvofiqligini tekshirish;

bank aksiyadorlari Umumiy majlisi qarorlarini tahlil qilish, ular O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga to'g'ri kelmaydigan hollarda ularni o'zgartirish bo'yicha takliflar kiritish;

"Kapitalbank" ATB ning Ichki nazorat to'g'risidagi nizomiga muvofiq Taftish komissiyasi ichki nazoratning doimiy faoliyat olib boruvchi organi hisoblanadi va bank va uning alohida bo'linmalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati ustidan nazorat qilish uchun mas'ul bo'ladi.

## **V. TAFTISH KOMISSIYASINING HUQUQLARI**

13. Taftish komissiyasi o'z vazifalarini tegishli bajarish maqsadlarida quyidagi huquqlarga ega:

yozma talabnoma bo'yicha bank boshqaruv organlarida lavozimlarni egallab turgan shaxslardan bankning moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risida uning ishi uchun zarur hujjatlarni olish;

o'rganilishi Taftish komissiyasining vazifalari va vakolatlariga muvofiq bo'lgan materiallarni olish. Ko'rsatilgan hujjatlar va materiallar Taftish komissiyasiga uning yozma so'rovidan so'ng 3 (uch) kun mobaynida taqdim etiladi;

yozma talabnoma bo'yicha Bank ustavi bilan o'rnatilgan tartibda bank aksiyadorlari Umumiy majlisi va bank Kuzatuv kengashining navbatdan tashqari majlisini chaqirish. Bank aksiyadorlarining Umumiy majlisini Taftish komissiyasining talabi bilan chaqirishni rad etish to'g'risidagi qaror amaldagi qonunchilikda belgilangan hollarda qabul qilinishi mumkin;

Taftish komissiyasi vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha bank xodimlari, shu jumladan mansabdor shaxslaridan shaxsiy tushuntirish berishlarini talab qilish;

bank xodimlari, shu jumladan mansabdor shaxslari amaldagi qonunchilik va bankning mahalliy hujjatlari talablarini buzgan hollarda bank boshqaruv organlari, uning bo'linmalari, xizmatlari, filiallari va vakolatxonolari oldiga ularning javobgarligi to'g'risidagi masalani qo'yish.

## **VI. TAFTISH KOMISSIYASI VA A'ZOLARINING MAJBURIYATLARI**

14. Bankda tayyorlangan moliyaviy axborotning to'g'riligini tekshirish, bankning umumiy

moliyaviy holati bo'yicha mustaqil xulosa va bank aksiyadorlari oldida aksiyadorlarning Umumiy majlisida yoki undan oldin hisob berish uchun komissiya ishining natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash Taftish komissiyasining asosiy majburiyatlari hisoblanadi.

15. Tekshirishlar o'tkazishda Taftish komissiyasining a'zolari tekshirish predmetiga taalluqli barcha hujjatlar va materiallarni puxta o'rganishlari shart. Taftish komissiyasining a'zolari noto'g'ri xulosalar uchun amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladilar.

16. Agar Taftish komissiyasi a'zosi unga berilgan vakolatlarning amal qilish muddati mobaynida o'z vazifalarini bajarishni to'xtatadigan bo'lsa, u bu haqda bank Kuzatuv kengashiga Taftish komissiyasidagi o'z ishini to'xtatishidan bir oy oldin bildirishi shart. Bu holda bank aksiyadorlarining Umumiy majlisi o'zining yaqin majlisida Taftish komissiyasi a'zosini almashtiradi.

17. Taftish komissiyasi:

o'tkazilgan taftishlar va tekshiruvlar natijalarini yozma hisobotlar, yozma bildirishlar, bank boshqaruv organlari majlislarida xabarlar shaklida aksiyadorlar Umumiy majlisi, bank Kuzatuv kengashi, bank Boshqaruviga o'z vaqtida yetkazishi;

Taftish komissiyasi o'z vazifalarini bajarish vaqtida foydalanish huquqiga ega bo'lgan tijorat siriga rioya qilish, maxfiy bo'lgan va bank siri hisoblanadigan ma'lumotlarni oshkor qilmasligi;

bank manfaatiga haqiqiy tahdidlar yuzaga kelganda yoki mansabdor shaxslarning su'istemol qilish hollarida vakolatli organlardan aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy majlisini chaqirishni talab qilishi;

har yili o'tkaziladigan mustaqil auditorlik tekshiruvlari natijalaridan va ichki audit xizmati materiallaridan foydalanishi shart.

18. Taftish komissiyasi bank aksiyadorlarining Umumiy majlisiga moliyaviy hisobot va buxgalterlik hisobini yuritishning qoidalari va tartibiga muvofiq yillik hisobotlar va balanslar bo'yicha xulosa taqdim etadi. Aksiyadorlar Umumiy majlisi uning xulosasiz balansni tasdiqlash huquqiga ega emas.

19. Taftish komissiyasi yilning har choragida bank Kuzatuv kengashi majlisiga bankda affilirlangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar yoki yirik bitimlarning mavjudligi, shuningdek bunday bitimlarni amalga oshirishda qonunchilik va bankning mahalliy hujjatlari talablariga rioya qilinishi to'g'risidagi xulosa beradi. Ushbu Nizomning 11-bandida ko'rsatilgan axborotdan iborat bo'lgan xulosa bank aksiyadorlarining yillik Umumiy majlisida eshitaladi.

## **VII. TAFTISH KOMISSIYASI MAJLISLARI**

20. Taftish komissiyasi barcha masalalarni o'z majlislarida hal qiladi. Taftish komissiyasining majlislari tasdiqlangan reja bo'yicha, shuningdek tekshirish yoki taftishlar boshlanishi oldidan va ularning natijalari bo'yicha o'tkaziladi. Taftish komissiyasi a'zosi Taftish komissiyasining shoshilinch hal qilishini talab qiladigan buzilishlar aniqlangan hollarda favqulodda majlis chaqirishni talab qilishi mumkin.

21. Taftish komissiyasi majlislari, agar unda Taftish komissiyasining kamida 2 (ikkita) a'zosi ishtirok etsa, qonuniy hisoblanadi.

22. Taftish komissiyasining har bir a'zosi bitta ovoz huquqiga ega. Taftish komissiyasining hujjatlari va xulosalari majlisda ishtirok etayotganlarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lib qolgan hollarda Taftish komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

Taftish komissiyasi a'zolari o'zlari komissiyaning qarori bilan rozi bo'lmagan hollarda

majlis bayonida buni alohida qayd etish va uni bank Boshqaruvi, bank Kuzatuv kengashi va aksiyadorlarning Umumiy majlisi e'tiboriga yetkazish huquqiga ega.

23. Taftish komissiyasi o'z tarkibidan raisi va kotibni saylaydi.

Taftish komissiyasi Raisi:

majlislarni chaqiradi va o'tkazadi;

Taftish komissiyasining kundalik ishini tashkil etadi; uning vakili sifatida bank Boshqaruvi, bank Kuzatuv kengashi, aksiyadorlarning Umumiy majlisi majlislarida ishtirok etadi;

uning nomidan chiqadigan hujjatlarni imzolaydi.

Taftish komissiyasi kotibi:

uning majlislarida majlis bayonlarini yuritishni tashkil qiladi;

Taftish komissiyasi hujjatlari va xulosalarini adresatlarga yetkazadi;

uning nomidan chiqadigan hujjatlarni imzolaydi.

## VIII. YAKUNIY QOIDALAR

24. Ushbu Nizom, shuningdek unga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar aksiyadorlar Umumiy majlisi tomonidan tasdiqlanadi.

### **Ishlab chiqilgan:**

Korporativ konsultant / / Xudayberganov A.S.

### **Kelishilgan:**

Xatarlarni boshqarish departamenti direktori / / Kan T.V.

Ichki audit departamenti direktori v.b. / / Kariyev A.S.

Yuridik xizmat departamenti direktori / / Pachurin V.V.